

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING MILLIY DUNYOQARASHINI  
SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI.

**Berdiboyeva Zinnera Erkaboy qizi**

*Urganch davlat pedagogika instituti, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

**Annatsiya:** Hozirgi kunda juda dolzarb masalalardan biri bo'lgan, tarbiyachilarni, umuman olganda pedagoglarni milliy dunyoqarashni shakllantirish to'g'risida ushbu maqolada mulohaza qilinadi. Shuningdek, milliy dunyoqarashni shakllantirish bo'yicha qilinadigan ishlarga namunalar keltiriladi, hamda uni shakllantirish orqali erishiladigan yutuqlar yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim tashkiloti, tarbiyachi, dunyoqarash, millat, milliylik, milliy dunyoqarash, xalq, ta'lim, tarbiya.

**KIRISH**

Maktabgacha ta'lim boshlang'ich tal'imning birlamchi bo'g'ini sifatida davlatimiz e'tirofidagi asosiy masalalardan biri bo'lib kemoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoevning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining qoidasi bo'lishi kerak" deb nomlangan ma'ruzasida maktabgacha ta'lim sohasida bolalarni qamrab olish atigi 27 foizni tashkil etishi va bu sohadagi ishlar e'tibordan chetda qoganligi ta'kidlab o'tildi. Ana shu vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimizda bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash samaradorligini oshirish maqsadida katta ishlar amaga oshirilmogda. [1]

**Asosiy qisim**

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy etukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Dunyoqarash subyektiv voqe'likni baholovchi qarorlar to'plamidir. Atrof-olamni anglashga harakat qilish natijasi o'laroq kelib chiqadi. Dunyoqarash diniy, falsafiy, ilmiy bo'lishi mumkin. Dunyoqarash-dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq.

Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi subyektiv in'ikosidir. Ayrim individning ongi bilan bog'langan individual dunyoqarash, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog'langan ijtimoiy dunyoqarash mavjuddir. Bular bir-birini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi. Dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita hissiy in'ikos etish natijasida angelaydi. Keyin voqelik xaqida to'plagan bilimlari asosida individning dunyoqarashi paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi.

Tarbiyachi-pedagogning faoliyati davomida ya'ni bolalarga ta'lim berish, tarbiyalash jarayonida dastavval o'zining milliy dunyoqarashi shakllangan bo'lmog'i zarur. Milliy dunyoqarashni shakllanishida quyidagilar katta ahamiyat kasb etadi.

Millat-uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, siyosiy va ijtimoiy maqsadlari bir biriga zid kelmaydigan, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tari-xining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib toptan ijtimoiy birlik shakli. Millat. kishilarning jips tarixiy birligi, umumiqtisodiy turmush, til, hudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uygunligi va mushtarakligi demakdir. Ungacha ijtimoiy taraqqiyotning etnos (xalq) shakli ham mavjud bo'lib, xalq atamasi juda keng va tor ma'noda ishlatiladi.

Milliylik – o'z millatini ulug'lash va uning manfaatini himoya qilish, milliy g'urur va milliy nafsoniyat tuyg'ulari, o'z tili, adabiyoti, san'ati va madaniyati, dini, tarixi va urf-odatlarini, rasm-rusumlari, bayram-sayillari, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy qadriyatlarni qadrlash, o'zi tug'ilib voyaga yetgan diyorini ardoqlash, uning tabiati, daryolari, ko'llari, musaffo osmoni bilan faxrlanish tuyg'usi. Milliylik bir millatga mansub kishilarning ijtimoiy-etnik barqarorligini ta'minlovchi buyuk qudratdir.[2] Milliy ong – millatning mavjudligi uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli bilan bog'liq omil. U millatning shakllanishi, taraqqiy etishi va abadiylikini ta'minlaydi. Milliy ong millatning o'zi bilan birga shakllanib boradi. Uning boshqalardan farq qiluvchi, faqat o'ziga taalluqli bo'lgan manfaatlari va maqsadlari shakllanishi milliy ongni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham milliy ong millat bilan parallel ravishda uzoq tarixiy davrda, uning turmush tarzi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va keng ma'naviy-ma'rifiy salohiyati ta'sirida rivojlanadi. Shunday qilib, milliy ong deb, millatning tarixi, taqdiri va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan manfaatlari va maqsadlarni ifodalovchi, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo'nalishlar tomon boshqarib turadigan g'oyalar, fikrlar tizimiga aytiladi. Milliy ong milliy manfaatlari sifatida, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, o'ziga millatlar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida ham shakllanib va rivojlanib boradi. Xuddi shu jarayonda millatga xos bo'lgan xususiyatlar shakllanadi. O'sha xususiyatlar millatni boshqa millatlardan ajratib turadi. Bunday o'ziga xos xususiyatlar, o'z navbatida, milliy manfaat va maqsadlarning shakllanishida yetakchi

omil vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham millatning barcha tarixiy davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy kamoloti milliy ongda o'z ifodasini topadi. Milliy ong rivojining ma'naviy asoslarini milliy til, madaniy meros, tarixiy xotira, urf-odat, an'analar, qadriyatlar, milliy tarbiya, ta'lim tizimi kabilar tashkil qiladi. Mana shu manbadan millat ma'naviy ozuqa oladi, ular orqali o'zini anglaydi.[3]

Milliy g'urur – 1) shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglash asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmat, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha. Bu tuyg'u quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehruhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish. Sog'lom milliy g'urur o'zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtiromlar ko'rsatishni taqozo qiladi. Bunday tuyg'uga ega ma'naviy yetuk kishi milliylikni millatchilikdan, haqiqiy milliy g'ururni millatparastlikdan farq qila oladi, boshqa millat vakillarining izzat nafi va g'ururini kamsitmaydi. Mustaqillik kishilar milliy g'ururini oshirib, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas'uliyatni his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda. Bunday sharoitda Vatanimiz mustaqilligidan faxrlanish, mamlakatimizda ozod, farovon va erkin hayot qurish yo'lida faol mehnat qilish, jahon hamjamiyati yutuqlari, universal texnologiyalardan foydalanish milliy g'ururni oshiradigan omillardir. Bu esa, o'z navbatida, yurtdoshlarimizning kuchi, salohiyati, bunyodkorlik faoliyatini ko'p jihatdan belgilaydi, ularni o'zlarida sog'lom milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish uchun tinmay izlanishga safarbar etadi. Har bir milliy-etnik madaniyat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajrab turadi va o'ziga xoslik turli-tuman narsalarda namoyon bo'lishi mumkin. Har bir etnik madaniyat o'ziga xos mantiqqa ega va aynan mazkur mantiq asosida mazkur madaniyatga xos asosiy o'zgarmas va ikkinchi darajali o'zgaruvchan xususiyatlarni izohlash mumkin.

Yuqoridagi omillar orqali tarbiyachining dunyoqarashi shakllantiriladi deya aytolamiz. Tarbiyachi-pedagogning milliy dunyoqarashini shakllantirishdan maqsad esa, tarbiyachi maktabgacha ta'lim tashkilotida asosiy shaxs hisoblanadi. Butun g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning sifati va qolaversa, kelajak avlodni tarbiyalanganlik va bilish darajasi tarbiyachining g'oyaviy-siyosiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga, javobgarlik hissiga, pedagogik mahoratiga va ishga bo'lgan ijodiy munosabatiga bog'liq. Bolaning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati ko'proq uning tarbiyachi shaxsiga munosabati bilan belgilanadi.

- Tarbiyachining o'ziga xos xususiyati-uning yuksak kasb mahoratidir. Eng muhimi-bolaning ruhiyatini, yosh va o'ziga xos ruhiy-fiziologik xususiyatlarini bilishdir.

-Bolalar ta'lim-tarbiya tashkiloti dasturi bolalarning yoshini, jismoniy va ruhiy xususiyatlarini hisobga olib tuzilgani bilan har bir boladagi alohida ruhiy

xususiyatning qay vaqtda va qanday namoyon bo'lishini oldindan ko'ra olmaydi, bu ish dasturda yaxshi tayyorlangan tarbiyachining zimmasiga yuklanadi.

-Tarbiyachi o'z guruhidagi har bir bolaning jismoniy tomondan yaxshi rivojlanishi, uning oliy nerv faoliyati yaxshi ishlashi, shuningdek aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tomondan normal tarbiyalanishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Tarbiyachi har bir boladagi o'ziga xos xususiyatlarni yaxshi bilgan holda undagi o'ziga xos xususiyatlarni (zararli bo'lsa) yo'qota borib, bolaga nisbatan qulay talab qo'yadi.

-Tarbiyachi har bir bolaning kelajakda haqiqiy inson bo'lishiga yordam beradigan sifatlarini va imkoniyatini rivojlantirishi lozim. Maktabgacha tarbiya yoshi davrida tarbiyachining bolaga shaxsiy ta'siri juda katta bo'ladi. Chunki bu davrdagi har bir ta'surot bolaning xotirasida bir umrga saqlanib qoladi

Pedagog, o'z strategiyalarini uning nazariy asoslari bilan tanishishlari zarurligini tushuntiradilar. Bu fikr amaliy topshiriqlarning boshlang'ich bosqichlarini bajarish uchun kerak bo'ladigan negiz bilimni egallash uchun to'g'ri. Biroq ko'p hollarda "negiz bilim" pedagoglar xayolida "juda ko'p nazariya" degani bo'lib chiqmoqda. Ular ta'lim oluvchilarning bo'lg'usi ta'lim jarayonlarida kerak bo'ladigan murakkab nazariy bilimlarni berishdan inson miyasi ular berayotgan barcha nazariyani o'ziga sig'dira olmasligini esdan chiqarib qo'yishadi. Biz o'z miyamizda bizga hozirda kerakli bo'lgan yoki bizda katta taassurot qoldirgan ma'lumotlarnigina saqlab qolamiz. Pedagoglar o'zlari ham avval foydalanmagan yangi ma'lumotlarni keyingi haftada bo'lib o'tadigan mashg'ulot paytigacha yodda tutishlari oson emas. Biroq aynan shunday ma'lumotlarni ular o'z talabalari doimo yodda tutishlarini talab etadilar[4].

Pedagogik fasilitatsiyada talabalarga ijobiy ta'sir etib, guruhda ijobiy muhitni hosil qilish, ta'lim-oluvchilarni o'z kuchlariga ishonishlariga erishish va mustaqil faoliyatlarida ularni qo'llab quvvatlashdir. Bunda, talabalar o'quv materiallarini mustaqil mediata'lim texnologiyalari yordamida izlab topadilar, birgalikda kichik guruhlarda va individual ravishda o'zlashtiradilar. [5]

Xulosa sifatida shuni ta'kidlay olamizki, hozirgi davrda tarbiyachining milliy dunyoqarashi shakllangan bo'lsa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni oson tusda kechadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlari milliy va umuminsoniy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishni ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ma'rifiy-madaniy tarbiyasida tabarruk dinimiz imkoniyatlari, buyuk ma'naviy-ma'rifiy merosimizdan foydalanish birinchi masala darajasiga olib chiqish, esa maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayonda esa tarbiyachining milliy dunyoqarashi ham muhim ahamiyat kasb etadi deyishimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror

2. Falsafa: qomusiy lug'at.-Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov.-Toshkent: Sharq, 2004. 267-268-betlar.

3. Falsafa: qomusiy lug'at.-Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov.-Toshkent: Sharq, 2004. (270-bet)

4. Dilova N.G. (2017). Opportunities of Pupils' Complex Development on the Bases of Modernization the Content of Primary Education. Eastern European Scientific Journal. No. 1, pp. 1-4

5. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008. – 164 b.